



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№5(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 386 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
<i>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</i>	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish .....	15
<i>Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich</i>	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli .....	19
<i>Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	28
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	33
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi .....	37
<i>Davlatova Zebo Haydarovna</i>	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	40
<i>Ochilova Farida Baxriddinovna</i>	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari .....	44
<i>Qo'chqarova Oysha Oltibayevna</i>	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
<i>Sevara Mamatkarimova</i>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
<i>Курбанова Шаира Исмаиловна</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari .....	63
<i>Muminova Feruza Farxodovna</i>	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati .....	70
<i>Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....	74
<i>Saidova Dilnoza Maripovna</i>	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
<i>Дмитрий Валерьевич Пупонин</i>	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям .....	82
<i>Муксинова Динора Азаматовна</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti .....	87
<i>Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi</i>	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar .....	92
<i>Berkinova Charos Islomovna</i>	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
<b>N. R. Masharipova</b>	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimni baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
<b>Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna</b>	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
<b>Pardayeva Aziza Rahmatillojevna</b>	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
<b>Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi</b>	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
<b>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</b>	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari .....	119
<b>Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna</b>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi .....	124
<b>Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi .....	127
<b>Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....	130
<b>Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna</b>	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari .....	134
<b>Sherzod Shuxratovich Boboyorov</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
<b>Sangirov Nuriddin Iriskulovich</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli .....	142
<b>Rasulova Umida Bahodir qizi</b>	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
<b>Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna</b>	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
<b>Boymatova Munavvar Ravshan qizi</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
<b>Lukmonova Salomat Gafurovna</b>	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari .....	157
<b>Farmonova Madina Bahriddin qizi</b>	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi .....	161
<b>Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi</b>	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
<b>Choriyeva Xurmo Panji qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislari malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
<b>Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.</b>	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
<b>Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi</b>	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish .....	181
<b>Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
<b>Axmad Bolqiyev</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
<a href="#">Shavqiddin Burxonov</a>	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
<a href="#">Pardaboyev Doston</a>	
Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
<a href="#">Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna</a>	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине “Практикум литературы народов СНГ”.....	199
<a href="#">Татьяна Викторовна Половинкина</a>	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
<a href="#">Shermatova Mokhira Baxodir qizi</a>	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
<a href="#">Musharafxon Sultanova</a>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
<a href="#">Ziyotova Madina</a>	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi .....	216
<a href="#">Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</a>	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish .....	220
<a href="#">Yusupova Latofat Nuriddinovna</a>	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari .....	228
<a href="#">Nasirova Nigora Baxtiyor qizi</a>	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati .....	233
<a href="#">Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi</a>	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish .....	239
<a href="#">Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi</a>	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031) .....	245
<a href="#">Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li</a>	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish .....	251
<a href="#">Eryigitov Dilshod Xolboyevich</a>	
Enhancing Speaking Skills Productively in English .....	255
<a href="#">J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova</a>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .....	259
<a href="#">Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</a>	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil .....	263
<a href="#">Klicheva Dilnoza Zulfon qizi</a>	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari .....	267
<a href="#">Kuvandikova Gulnora Gulamovna</a>	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
<a href="#">Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li</a>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
<a href="#">Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna</a>	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	279
<a href="#">Rajabova Go'zal Zarifovna</a>	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
<a href="#">Sitara Elova Axmatkulovna</a>	



Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
<i>Umarkulov Muhtorali Islomkulovich</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
<i>Xakimov Xurshid Nozimovich</i>	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
<i>Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.</i>	
Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna</i>	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal</i>	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
<i>Tangirov A. J.</i>	
Ta'lim klasteri asosida zaif eshituvchi bolalarni inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirishning pedagogik mexanizmlari.....	309
<i>Dilnoza Xushvaktovna Ernazarova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....	313
<i>Payzullaeva Gozsal Bayrambayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mas'uliyat ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari.....	317
<i>Maxramova Gulchexra Maxsudbek qizi</i>	
Maxsus ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik samaradorligi.....	320
<i>Tashkenbayeva Dilafuz Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar.....	325
<i>Xazratkulova Shoiri Noraliyevna</i>	
Musiqi madaniyati darslarida multimedia vositalarida musiqa o'qituvchisining kompetensiyaviy tayyorgarligi.....	329
<i>Qudratova Elnoz Ismatilayevna, Ismailova Sevinch, G'oibnazarov Elmurod</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modeli.....	334
<i>Tillaboyeva Havasxon</i>	
Diskursiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	340
<i>Boynazarova Nilufar Tilovmurot qizi</i>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari.....	346
<i>Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari.....	349
<i>Ergasheva Sitora Baxriddin qizi</i>	
Sinergetik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish zarurati va imkoniyatlari.....	353
<i>Xo'shboqova Surayyo Baxtiyor qizi</i>	
Interfaol metodlar asosida o'smirlarda mustaqil tafakkurni rivojlantirish.....	357
<i>Ismoilova Mashxura Mashrabbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	360
<i>Kuvanakova Guljaxon</i>	
The Role of Autonomous Learning in Developing English Language Proficiency of University Students in Uzbekistan.....	363
<i>Omonova Kamola, Mutabar Zikriddinova</i>	
Maktablarda fasilitator faoliyatini tashkil etish borasida ayrim mulohazalar.....	366
<i>Qahhorova Marjona Ixtiyor qizi</i>	
Модель и педагогические условия формирования профессиональных компетенций будущих учителей в области информационной безопасности.....	370
<i>Сагинбаева Кымбат Кенжегалиевна, Нуриддинова Майсара Икрамовна</i>	



Boshlang'ich sinf darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish.....	374
<a href="#">Xudoynazarova Muxlisa Bakhadirovna</a>	
Совершенствование методической компетентности будущих учителей начальных классов на основе креативного подхода .....	377
<a href="#">Дониёрова Лайло Худайбердиевна</a>	

# DISKURSIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Boynazarova Nilufar Tilovmurot qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini diskursiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda nutq madaniyatining nazariy asoslari, diskurs tushunchasi hamda uning pedagogik ahamiyati tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy tajriba asosida ishlab chiqilgan metodik tizimning samaradorligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** diskursiv yondashuv, nutq madaniyati, boshlang'ich ta'lim, kommunikativ kompetensiya, metodika.

**Abstract:** This article addresses the issues of improving the methodology for developing the speech culture of primary school students based on a discursive approach. The study provides a systematic analysis of the theoretical foundations of speech culture, examines the concept of discourse and its pedagogical significance. In addition, the effectiveness of the methodological system developed on the basis of practical experience is substantiated.

**Key words:** discursive approach, speech culture, primary education, communicative competence, methodology.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики развития речевой культуры учащихся начальных классов на основе дискурсивного подхода. В работе проведён системный анализ теоретических основ речевой культуры, раскрыто понятие дискурса и его педагогическое значение. Также обоснована эффективность методической системы, разработанной на основе практического опыта.

**Ключевые слова:** дискурсивный подход, речевая культура, начальное образование, коммуникативная компетенция, методика.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Nutq madaniyati shaxsning ijtimoiylashuvi, tafakkuri hamda bilimlarni egallash jarayonida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli ta'lim olish uchun mustahkam asos yaratadi.

An'anaviy yondashuvlarda nutqni o'rgatish ko'pincha grammatik qoidalarni egallash bilan chegaralangan bo'lsa, zamonaviy pedagogik qarashlarda nutq kommunikativ jarayon sifatida talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan diskursiv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv nutqni kontekst, maqsad va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri – shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ayniqsa uning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish muammosi pedagogika va metodika fanlarida dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Chunki nutq – nafaqat til birliklarining yig'indisi, balki shaxsning tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi muhim vositadir.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning nutqiy rivojlanishida eng muhim davr hisoblanadi. Aynan shu davrda o'quvchilarning lug'at boyligi kengayadi, grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish jarayoni jadallashadi, mantiqiy fikrlash hamda o'z fikrini izchil bayon qilish ko'nikmalari shakllanadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik ishlar tizimli va ilmiy asoslangan bo'lishi zarur.



Hozirgi ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan yondashuvlar nutqiy faoliyatni rivojlantirishda muayyan natijalarni bermoqda, biroq ularni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Xususan, nutqni o'rgatishda grammatik bilimlar bilan bir qatorda kommunikativ yondashuvni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda erkin va mantiqiy nutq tuzish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, aniq va izchil nutq tuzish ko'nikmalari yanada rivojlanadi.

Mazkur muammoni samarali hal etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri – diskursiv yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Diskursiv yondashuv nutqni faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy va kommunikativ jarayon sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, nutq mazmuni nafaqat gaplar orqali, balki ularning qo'llanish vaziyati, maqsadi hamda ishtirokchilari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Bu esa o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarda nutqdan samarali foydalanishga o'rgatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish muammosi pedagogika, psixologiya va lingvistika fanlari kesishmasida keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar nutq va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, shuningdek, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ijtimoiy muhit va faoliyatning muhim rolini asoslab beradi.

Nutq rivoji nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan L. S. Vygotskiy nutq va tafakkurning o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslab, ijtimoiy muhitning bolaning nutqiy rivojlanishidagi hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bola nutqi dastlab ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanib, keyinchalik ichki nutqqa aylanadi va tafakkur rivojining asosiy vositasiga xizmat qiladi.

J. Piaget esa bolalarning intellektual rivojlanishini bosqichma-bosqich jarayon sifatida ko'rib, nutqning rivojlanishini kognitiv taraqqiyot bilan uzviy bog'laydi. Unga ko'ra, bolaning nutqi uning fikrlash darajasiga mos ravishda shakllanadi va rivojlanadi.

Lingvistika sohasida N. Chomsky tomonidan ilgari surilgan nazariyalar tilni inson ongiga xos universal tizim sifatida talqin etadi. Uning qarashlari nutqning grammatik asoslarini tushuntirishda muhim bo'lsa-da, zamonaviy yondashuvlar nutqni faqat lingvistik birliklar majmui sifatida emas, balki kommunikativ faoliyat sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Chet tillarni o'qitish metodikasi sohasida J. C. Richards va J. Harmer tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ yondashuv nutqni real muloqot jarayonida o'rgatish g'oyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarni faol kommunikatsiyaga jalb etish, nutqni vaziyatga mos ravishda qo'llash va muloqot kompetensiyasini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, H. D. Brown til o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyaning ahamiyatini alohida ta'kidlab, o'quvchilarni real nutqiy faoliyatga jalb etish zarurligini asoslab beradi. Uning fikricha, samarali o'qitish jarayoni o'quvchining faol ishtiroki va amaliy nutqiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq.

Milliy pedagogika fanida ham nutq madaniyatini rivojlantirish masalasi muhim o'rin egallaydi.

M. To'xtaxodjayeva pedagogik jarayonda shaxsni har tomonlama rivojlantirishda nutqning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Q. Abdullayeva esa nutq madaniyatining asosiy komponentlarini tahlil qilib, uni o'quvchilarda shakllantirishning metodik jihatlarini yoritadi.

S. Xolmatov boshlang'ich ta'lim metodikasi doirasida nutqni rivojlantirishning samarali usullarini taklif etadi.

Biroq mavjud ilmiy ishlanmalar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutq madaniyatini rivojlantirish ko'p hollarda alohida lingvistik yoki metodik jihatlar doirasida o'rganilgan bo'lib, uni diskursiv yondashuv asosida kompleks tarzda tadqiq etish yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini real kommunikativ vaziyatlar bilan bog'lab rivojlantirish metodikasini tizimli ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot diskursiv yondashuv asosida nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, mavjud ilmiy qarashlarni rivojlantiradi va ularni amaliy jihatdan boyitadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini diskursiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan. Metodologik yondashuv tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy tamoyillar uyg'unligida qurildi. Tadqiqotda nutqni o'rganish alohida til birliklari doirasida emas, balki real kommunikativ vaziyatlar, ya'ni diskurs jarayoni bilan uzviy bog'liq holda tashkil etildi.

Tadqiqotning nazariy asosini nutq faoliyati, kommunikativ kompetensiya va diskurs nazariyasiga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Ushbu asoslar o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda kontekst, maqsad, ishtirokchilar

hamda muloqot sharoitini hisobga olish zarurligini belgilaydi. Shu bois metodologiyada o'quvchilarni real nutqiy faoliyatga jalb etish va ularni fikrni mustaqil ifodalashga yo'naltirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta o'zaro bog'liq metodlardan foydalanildi. Nazariy tahlil asosida nutq madaniyati va diskursiv yondashuvga oid ilmiy manbalar o'rganildi hamda mavjud metodikalar qiyosiy tahlil qilindi. Pedagogik kuzatish yordamida boshlang'ich sinflarda nutqni rivojlantirish jarayonining amaldagi holati o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari orqali ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi tekshirildi. Shuningdek, olingan natijalarni umumlashtirish va taqqoslash maqsadida tahliliy yondashuv qo'llanildi.

Tadqiqotning amaliy qismi umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida tashkil etildi. Unda o'quvchilar ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba guruhida diskursiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodika joriy etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish usullari qo'llanildi. Mazkur yondashuv metodikaning samaradorligini qiyosiy asosda aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot bir necha bosqichda amalga oshirildi. Dastlabki bosqichda o'quvchilarning nutqiy rivojlanish darajasi aniqlanib, ularning lug'at boyligi, fikrni izchil bayon qilish ko'nikmalari, dialog va monolog nutq darajasi tahlil qilindi. Ushbu bosqich diagnostik xarakterga ega bo'lib, keyingi bosqichlar uchun asos vazifasini bajardi.

Keyingi bosqichda diskursiv yondashuvga asoslangan metodik tizim ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur tizim quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oldi: vaziyatli topshiriqlar orqali nutqni rivojlantirish, dialog va monolog mashqlarini tashkil etish, o'quvchilarni muhokama va bahs jarayonlariga jalb etish, shuningdek, hikoya tuzish hamda matn yaratishga yo'naltirish. Bunda har bir topshiriq real kommunikativ vaziyatga maksimal darajada yaqinlashtirildi.

Tajriba bosqichida darslar diskursiv yondashuv asosida qayta tashkil etildi. O'quvchilar turli ijtimoiy rollarni bajarish, muayyan vaziyatlarda o'z fikrini asoslash hamda savol-javob jarayonlarida faol ishtirok etish orqali nutqiy faoliyatga jalb qilindi. Bu jarayonda o'qituvchi boshqaruvchi emas, balki yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etdi.

Tadqiqot davomida baholash mezonlariga alohida e'tibor qaratildi. O'quvchilarning nutqi aniqlik, mantiqiylik, izchillik va ifodaviylik kabi ko'rsatkichlar asosida baholandi. Har bir o'quvchining rivojlanish dinamikasi muntazam kuzatilib, boshlang'ich va yakuniy natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

Metodologiyaning muhim jihatlaridan biri – ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan yondashuvning qo'llanilishidir. Diskursiv metodika orqali o'quvchilar faqat bilim oluvchi emas, balki faol muloqot ishtirokchisiga aylantirildi. Bu esa ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchilligi qo'llanilgan metodlarning o'zaro uyg'unligi, tajriba-sinov ishlarining tizimli tashkil etilgani hamda olingan natijalarning qiyosiy tahlili bilan ta'minlandi. Shu asosda ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Umuman olganda, mazkur metodologiya boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishda diskursiv yondashuvni samarali qo'llash imkonini beruvchi izchil va yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari diskursiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Olingan natijalar diagnostik va yakuniy bosqichlarda to'plangan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida umumlashtirildi.

Dastlabki diagnostik bosqichda o'quvchilarning nutqiy rivojlanish darajasi bir qator mezonlar asosida baholandi. Xususan, ularning lug'at boyligi, fikrni mantiqiy bayon qilish qobiliyati, dialog va monolog nutqni shakllantirish darajasi hamda nutqiy faoligi o'rganildi. Ushbu bosqich natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi rivojlanishida takomillashtirishni talab etuvchi jihatlar mavjud bo'lib, fikrni izchil ifodalashda ayrim uzilishlar kuzatildi, lug'at boyligi esa yetarli darajada shakllanmagan edi. Shuningdek, o'quvchilarning erkin nutq tuzish jarayonida ayrim grammatik va mantiqiy xatolarga yo'l qo'yishi aniqlandi.

Tajriba bosqichida diskursiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodika amaliyotga joriy etildi. Ushbu jarayonda o'quvchilar real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni bajarish orqali nutqiy faoliyatga faol jalb qilindi. Darslarda dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimli ravishda qo'llanildi. Natijada o'quvchilarning nutqiy faoligi oshib, ular o'z fikrini mustaqil va erkin bayon qilishga intila boshladi.

Yakuniy bosqichda olingan natijalar dastlabki ko'rsatkichlar bilan solishtirildi. Qiyosiy tahlil natijalari tajriba guruhida quyidagi ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi:

- o'quvchilarning lug'at boyligi sezilarli darajada kengaydi, ular yangi so'z va iboralarni nutqda faol qo'llay boshladi;
- fikrni mantiqiy va izchil bayon qilish ko'nikmalari rivojlandi, nutqdagi uzilishlar kamaydi;



- dialogik va monologik nutq shakllanish darajasi oshdi, o'quvchilar muloqot jarayonida faol ishtirok eta boshladi;
- nutqning ifodaviyligi va kommunikativligi yaxshilandi, o'quvchilar nutqda emotsional va uslubiy vositalardan foydalanish ko'nikmalarini egalladi.

Nazorat guruhida ham ijobiy siljishlar kuzatilgan bo'lsa-da, ular tajriba guruhiga nisbatan kamroq darajada namoyon bo'ldi. Bu holat diskursiv yondashuv asosida tashkil etilgan metodikaning yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida o'quvchilarning nutqiy mustaqilligi oshgani aniqlandi. Ular berilgan mavzu asosida mustaqil ravishda hikoya tuzish, voqealarni izchil bayon qilish hamda o'z fikrini asoslash qobiliyatini namoyon etdi. Bu esa nutq madaniyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, diskursiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning nafaqat nutqiy, balki tafakkuriy faoliyatini ham rivojlantiradi. O'quvchilar muammoli vaziyatlarda fikr yuritish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa ularning umumiy o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tajriba jarayonida yana bir muhim jihat kuzatildi: o'quvchilar darslarda faolroq ishtirok eta boshladi, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishi ortdi. Bu holat diskursiv yondashuvning motivatsion ahamiyatini ham namoyon etadi. Chunki real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Umuman olganda, olingan natijalar diskursiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodikaning samarali ekanligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda an'anaviy metodlarga nisbatan yuqori natijalar beradi hamda ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Tajriba guruhi o'quvchilari nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarga erishdi, ayniqsa erkin fikrlash va nutqiy mustaqillik darajasi sezilarli darajada oshdi.

Olingan natijalar tahlili shuni anglatadiki, nutqni faqat lingvistik birliklar darajasida o'rgatish o'quvchilarning real kommunikativ faoliyatini to'liq shakllantirish uchun yetarli emas. Aksincha, nutqni kontekst, maqsad va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq holda o'rgatish, ya'ni diskursiv yondashuvni qo'llash o'quvchilarning nutqiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan ijobiy natijalar diskursiv yondashuvning bir qator muhim jihatlari bilan izohlanadi.

*Avvalo*, ushbu yondashuv o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga yaqin sharoitda nutqiy faoliyatga jalb etadi. Bu esa ularning nutqni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilar nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzishni, balki o'z fikrini maqsadga muvofiq, aniq va mantiqiy ifodalashni ham o'zlashtiradi.

*Ikkinchidan*, diskursiv yondashuv o'quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi o'quvchilar dars jarayonida faolroq ishtirok etib, savol-javoblarda tashabbus ko'rsatdi hamda o'z fikrini erkin bayon qilishga intildi. Bu holat o'quvchilarning nutqiy ishonchi mustahkamlanganini ko'rsatadi. An'anaviy metodlarda esa o'quvchilarning faolligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud.

*Uchinchidan*, diskursiv yondashuv o'quvchilarning tafakkur faoliyatini ham rivojlantiradi. Nutq va tafakkur o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgani sababli, o'quvchilarning fikr yuritish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Bu esa nutq madaniyatining shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini baholash jarayonida ayrim takomillashtirishni talab etuvchi jihatlar ham aniqlandi. Xususan, diskursiv yondashuvni samarali qo'llash o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorlikni talab etadi. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ayrim hollarda ushbu yondashuvni dars jarayoniga yanada samarali integratsiya qilish bo'yicha qo'shimcha metodik ko'mak zarur bo'ladi. Bu esa metodikaning amaliy samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, mavjud darslik va o'quv qo'llanmalarda diskursiv yondashuvga asoslangan topshiriqlarni kengaytirish zarurati mavjudligi aniqlandi. Ayrim topshiriqlar an'anaviy, reproduktiv xarakterga ega bo'lib, o'quvchilarning erkin nutqiy faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini to'liq ochib bermaydi. Shu sababli ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish va uni zamonaviy yondashuvlar asosida boyitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarini boshqa ilmiy ishlanmalar bilan qiyoslash ham muhimdir. Ilmiy adabiyotlarda diskursiv yondashuvning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi roli alohida ta'kidlanadi. Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi hamda boshlang'ich ta'lim bosqichida diskursiv yondashuvni qo'llash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Diskursiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasi ta'lim jarayonini real kommunikativ faoliyatga yaqinlashtirish, o'quvchilarni faol muloqot ishtirokchisiga aylantirish hamda ularning mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Mazkur metodik tizim o'zaro

bog'langan maqsad, mazmun, usul va vositalar birligida tashkil etilib, nutqni rivojlantirishni uzluksiz va bosqich-ma-bosqich jarayon sifatida talqin etadi.

Metodik tizimning asosiy maqsadi o'quvchilarda nutq madaniyatining tarkibiy komponentlarini kompleks rivojlantirishdan iborat. Bu jarayonda o'quvchilar so'z boyligini kengaytirish, fikrni mantiqiy va izchil bayon qilish, nutqning vaziyatga mosligini ta'minlash hamda muloqot madaniyatini egallashga yo'naltiriladi. Metodika mazmuni real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali o'quvchilarning nutqiy tajribasini boyitishga xizmat qiladi.

Metodik yondashuvning markazida diskursga asoslangan o'quv faoliyati turadi. Har bir mashg'ulot o'quvchilarni muayyan kommunikativ vaziyatga olib kirish bilan boshlanadi. Masalan, kundalik hayotda uchraydigan suhbatlar, savdo jarayonlari, do'stlar o'rtasidagi muloqot yoki muammoli vaziyatlar asosida topshiriqlar tashkil etiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarga nutqni sun'iy emas, balki tabiiy muhitda qo'llash imkonini beradi.

Metodik tizimda mashqlar uch asosiy yo'nalishda tashkil etiladi:

*Birinchi yo'nalish* lug'at boyligini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda o'quvchilar yangi so'zlarni o'zlashtirish bilan birga ularni turli kontekstlarda qo'llashga o'rganadi. So'zlarning ma'nodoshlari, qarama-qarshi ma'nolari hamda obrazli ifodalar ustida ishlash orqali nutq boyitiladi.

*Ikkinchi yo'nalish* gap va matn tuzishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilar fikrni izchil bayon qilish, gaplar o'rtasida mantiqiy bog'lanish yaratish ko'nikmalarini egallaydi.

*Uchinchi yo'nalish* esa dialog va monolog nutqni rivojlantirishni nazarda tutadi. O'quvchilar savol-javob jarayonlarida ishtirok etish, o'z fikrini asoslash hamda suhbatni davom ettirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Diskursiv metodikada interfaol usullar muhim o'rin tutadi. Rolli o'yinlar orqali o'quvchilar turli ijtimoiy rollarni bajarib, muloqot jarayonini amalda his etadi. Bahs-munozaralar o'quvchilarning fikrini asoslash va boshqalarning fikrini tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Aqliy hujum" va klaster usullari o'quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtiradi hamda nutqiy faoliyatni rag'batlantiradi. Ushbu usullar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi.

Metodik tizimda multimediyaga vositalaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Audio va video materiallar asosida ishlash o'quvchilarning tinglab tushunish va ko'rganlarini bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, qisqa videoni tomosha qilgandan so'ng o'quvchilardan voqeani qayta hikoya qilish, qahramonlarga tavsif berish yoki voqea rivojini davom ettirish talab etiladi. Bu esa nutqning mantiqiyli va izchilligini mustahkamlaydi.

Metodik tizimda o'qituvchining roli yo'naltiruvchi va tashkil etuvchi sifatida belgilanadi. O'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilim berishdan ko'ra, ularni mustaqil fikrlashga undaydi, savollar orqali yo'naltiradi hamda nutqiy faoliyat uchun qulay muhit yaratadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifodalashiga imkon beradi.

Baholash jarayoni ham metodikaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilarning nutqi aniqlik, mantiqiylik, izchillik va ifodaviylik mezonlari asosida baholanadi. Baholash faqat yakuniy natijani emas, balki o'quvchining rivojlanish jarayonini ham qamrab oladi. Bu esa har bir o'quvchining individual yutuqlarini aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Metodik tizimni amaliyotga joriy etishda darslarning tuzilishi ham qayta ko'rib chiqiladi. Dars odatda motivatsiya bosqichi bilan boshlanib, unda o'quvchilar muayyan vaziyatga jalb etiladi. Keyingi bosqichda yangi nutqiy faoliyat tashkil etilib, o'quvchilar turli topshiriqlarni bajaradi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalar umumlashtirilib, o'quvchilarning nutqiy faoliyati tahlil qilinadi.

Umuman olganda, diskursiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik tizim boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur metodika o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi hamda real hayotiy vaziyatlarda nutqdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutq madaniyatini diskursiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi har tomonlama o'rganildi. Olib borilgan nazariy tahlillar va tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, nutq madaniyatini shakllantirishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy, kommunikativ yo'naltirilgan metodlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida nutq madaniyati tushunchasining mohiyati aniqlashtirildi hamda uning tarkibiy komponentlari tizimli ravishda yoritildi. Shuningdek, diskursiv yondashuvning nazariy asoslari tahlil qilinib, uning boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur yondashuv nutqni real kommunikativ vaziyatlar bilan bog'lash, o'quvchilarni faol muloqotga jalb etish hamda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi.



Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ayrim yo'nalishlarda takomillashtirish zarurati mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, diskursiv yondashuvni qo'llash bo'yicha o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini yanada rivojlantirish, shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalarda ushbu yondashuvga asoslangan topshiriqlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy-uslubiy ishlarni amalga oshirish zarurligini belgilaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Vygotsky, L. S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 2019.
2. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2020.
3. Chomsky, N. Language and Mind. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
4. Richards, J. C. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
5. Harmer, J. How to Teach English. – Harlow: Longman, 2020.
6. To'xtaxodjayeva, M. Pedagogika. – Toshkent, 2020.
7. Abdullayeva, Q. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent, 2021.
8. Xolmatov, S. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent, 2022.
9. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2019.
10. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – Harlow: Pearson, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.